

Bundan keyin “PROVAYDER” deb ataladigan “aHOST” savdo belgisi ostidagi «SUVAN NET» MChJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor Suvanov A.A bir tomondan, va bundan keyin “OBUNACHI” deb ataladigan _____ nomidan _____ asosida ish yurituvchi _____ ikkinchi tomondan, birgalikda “TOMONLAR” deb yuritiladigan shaxslar xosting xizmatlarini ko‘rsatish va/yoki domen nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va uzaytirish to‘g‘risidagi shartnomani tuzdilar.

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

- 1.1. PROVAYDER sayti – Xizmat ko‘rsatuvchi PROVAYDERNING rasmiy sayti www.ahost.uz.
- 1.2. Xizmatlar - virtual xosting, virtual server, ajratilgan server, domen nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, SSL sertifikatlarini berish va OBUNACHILARning ma’lumotlarini Internet tarmog‘ida joylashtirish va saqlash bilan bog‘liq boshqa xizmatlar. Xizmatlarning to‘liq ro‘yxati PROVAYDER saytida ko‘rsatilgan.
- 1.3. Xosting akkaunti – bu xarid qilingan “virtual xosting” Xizmatiga muvofiq PROVAYDER serverida saqlanadigan OBUNACHI ma’lumotlari bo‘lib, fayllar, ma’lumotlar bazalari, DNS sozlamalari, pochta qutilari, elektron xatlar va hokazolarni o‘z ichiga oladi.
- 1.4. Shaxsiy kabinet - OBUNACHIga Xizmatlarni ulash/o‘chirish va ulardan foydalanishni mustaqil boshqarish, shuningdek, ushbu Xizmatlar bilan bog‘liq boshqa texnik va ma’muriy harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturiy ta’milot.
- 1.5. Shaxsiy ma’lumotlar - OBUNACHI tomonidan Xizmatlardan foydalanish uchun taqdim etilgan, ma’lum bir OBUNACHIga aloqador yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma’lumotlar.
- 1.6. Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash - shaxsiy ma’lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlashtirish va yo‘q qilish bo‘yicha bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirish.

2. BAJARISH SHARTLARI

- 2.1. PROVAYDER ushbu Shartnoma bo‘yicha haq to‘lash uchun taqdim etilgan hisob-fakturalarda ko‘rsatilgan xizmatlarni OBUNACHI topshirig‘iga binoan taqdim etish majburiyatini oladi, OBUNACHI esa ushbu Shartnomaga va Ommaviy ofertaga muvofiq ularni qabul qilish, haq to‘lash va foydalanish majburiyatini oladi.
- 2.2. OBUNACHI Shartnomani tuzish paytida ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi. PROVAYDER OBUNACHI ma’lumotlarini tekshiradi va istalgan vaqtida kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tasdiqlashni yoki hujjatlarning nuxxalarini yoki asl nuxxalarini taqdim etish orqali OBUNACHI tomonidan kiritilmagan ma’lumotlarni so‘rashga hamda tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgunga va OBUNACHI so‘ralgan ma’lumotlarni o‘zgartirgunga va/yoki to‘ldirgunga qadar xizmatlar ko‘rsatishni to‘xtatib turishga haqli.
- 2.3. Muayyan Xizmatlarni tanlash va ulardan foydalanish (ulanish va/yoki uzish) OBUNACHI tomonidan Shaxsiy kabinetdan foydalangan holda mustaqil ravishda amalga oshiriladi.
- 2.4. OBUNACHI ushbu Shartnomani tuzish orqali, Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq PROVAYDERGA ushbu Shartnomani bajarish uchun o‘z shaxsiy ma’lumotlarini (jumladan quyidagi va ular bilan cheklanmaydigan shaxsiy ma’lumotlarni: FISH, JShShIR, pasport ma’lumotlari, elektron pochta manzili, mobil telefon raqami, shuningdek Xizmatlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni) avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan yoki foydalanmagan holda qayta ishlashga, shu jumladan shaxsiy ma’lumotlarni to‘plash, yozib olish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), shaxssizlashtirish, blokirovka qilish, o‘chirish, yo‘q qilishga o‘zining muddatsiz roziliginini taqdim etadi. OBUNACHI ushbu bilan, PROVAYDERga ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘zi taqdim etgan har qanday shaxsiy ma’lumotlarini ushbu Shartnomani bajarish uchun uchinchi shaxslarga berilishiga ham rozilik beradi.
- 2.5. PROVAYDER O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi siyosati talablariga muvofiq OBUNACHIning shaxsiy ma’lumotlarining maxfiyligini ta’minalash uchun barcha zarur choralarini ko‘rishini kafolatlaydi. OBUNACHIning o‘z shaxsiy ma’lumotlarining qayta

ishlanishiga (shu jumladan uchinchi shaxslarga berilishiga) roziliги муддатсиз бо‘либ, бунда шаксиъ ма’лумотларни qayta ishlashга rozilik OBUNACHI томонидан O‘zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonuniga muvofiq, Sharhnomalar bekor qilingandan keyin qaytarib olinishi mumkin.

3. XIZMATLARNING NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Xizmatlarni ko‘rsatish narxi va muddati ushbu Sharhnomalar bo‘yicha haq to‘lash uchun taqdim etilgan hisob-fakturalarga va PROVAYDER saytida joylashtirilgan amaldagi narxlar ro‘yxatiga muvofiq belgilanadi. Berilgan hisob-fakturalar bo‘yicha haq to‘lash hisob-fakturada ko‘rsatilgan xizmatlarni ko‘rsatish shartlariga rozilikni anglatadi.

3.2. OBUNACHI o‘zi томонидан амалга оширилган то‘ловлarning то‘г‘рилиги учун o‘zi javobgardir.

3.3. OBUNACHI to‘lovni, haq to‘lash учун hisob-faktura berilgan kundan boshlab 10 bank kunidan kechiktirmay амалга оширади. 10 bank kunidan so‘ng PROVAYDER ushbu berilgan hisob-fakturani haqiqiy emas deb hisoblashга haqli.

3.4. Xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha barcha bank yoki boshqa komissiya to‘lovlarini OBUNACHI томонидан mustaqil to‘lanadi.

3.5. PROVAYDER томонидан ushbu Sharhnomalar bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish OBUNACHIdan PROVAYDERning hisob raqamiga 100% (yuz foiz) oldindan to‘lov o‘tkazilgandan keyin 5 bank kuni ichida boshlanadi.

3.6. PROVAYDER xizmat ko‘rsatish muddati tugagan kuni avtomatik ravishda xizmatlar ko‘rsatishni to‘xtatadi.

3.7. “Virtual xosting” xizmatidan foydalanilganda, xizmat ko‘rsatish muddati tugagandan so‘ng 30 kun o‘tgach, OBUNACHIning xosting akkaunti va pochta qutilaridagi ma’lumotlar qayta tiklash imkoniyatisiz avtomatik tarzda yo‘q qilinadi.

“Virtual server va/yoki ajratilgan server”, bundan keyingi o‘rinlarda server xizmatlaridan foydalanilganda, xizmat ko‘rsatish muddati tugaganidan keyin 5 kun o‘tgach, serverdagи barcha ma’lumotlar qayta tiklash imkoniyatisiz yo‘q qilinadi, server учун ajratilgan IP-manzil boshqa OBUNACHI томонидан foydalanish учун ozod qilinadi.

3.8. Ushbu Sharhnomalar har ikki tomon imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

3.9. Ushbu Sharhnomalar bo‘yicha PROVAYDER томонидан ko‘rsatiladigan xizmatlardan OBUNACHI faqat o‘z maqsadlari учун foydalanishi mumkin va ularni qayta sotishi mumkin emas.

3.10. TOMONLAR o‘rtasida shartnomalar, hisob-fakturalar, arizalar, solishtirish dalolatnomalari va boshqa birlamchi buxgalteriya hujjatlarini imzolash O‘zbekiston Respublikasining 29.04.2004 yildagi 611-II-son “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq elektron shaklda amalga oshiriladi. Barcha hujjatlar Tomonlar tarafidan elektron hujjat aylanishi rasmiy operatori tizimi orqali imzolanadi.

3.11. PROVAYDER hisobot oyi tugaganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida 3.10-bandga muvofiq elektron shakldagi hisob-fakturani shakllantiradi va OBUNACHIga yuboradi.

4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. PROVAYDERNING MAJBURIYATLARI:

4.1.1. Ushbu Sharhnomalar va PROVAYDER saytida taqdim etilgan Ommaviy oferta shartlarini bajarish.

4.1.2. Ushbu Sharhnomalar muvofiq, haftada 7 kun 24 soat, shu jumladan dam olish va bayram kunlarida ham, OBUNACHI томонидан Xizmatlar учун oldindan to‘lov miqdoriga mos keladigan hajmda xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minalash. Xizmatlarni taqdim etishda PROVAYDER O‘zRda o‘rnatalgan standartlar va texnik me’yorlarga mos darajadagi Xizmatlar sifatini kafolatlaydi.

4.1.3. OBUNACHI томонидан xizmatlarni oldindan to‘lash va iste’mol qilish hisobini yuritish.

4.1.4. Ushbu Sharhnomalar, Tariflar va Xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘sishchalarini ular kuchga kirgan sanadan kamida 10 kalendar kun oldin PROVAYDER saytida e’lon qilish.

4.1.5. Xizmat ko‘rsatish shartlariga kiritilishi rejalshtirilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida ularni PROVAYDER saytida e’lon qilish orqali OBUNACHIga xabar berish.

4.1.6. OBUNACHI xizmatlar ko'rsatishdagi nosozliklar to'g'risida yozma ravishda xabar bergan kundan boshlab 3 ish kuni ichida xizmatlarning normal ko'rsatilishini tiklash. Agar bu nosozliklar OBUNACHI tomonidan domenni ro'yxatdan o'tkazish xizmatlari uchun to'lov amalga oshirilmaganligi, OBUNACHI xodimlarining sayt bilan noto'g'ri ishlashi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik, fors-major holatlari, aloqa kanallarining nosozliklari va PROVAYDERning harakatlari bilan bog'liq bo'limgan boshqa holatlarga aloqador bo'lmasa.

4.1.7. Shaxsiy ma'lumotlarning yaxlitligi va butligini, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydigan, OBUNACHIning shaxsiy ma'lumotlarini noqonuniy qayta ishlanishini oldini oladigan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'rish.

4.2. OBUNACHINING MAJBURIYATLARI:

4.2.1. Ushbu Shartnoma va PROVAYDER saytida taqdim etilgan Ommaviy oferta shartlarini bajarish.

4.2.2. Ushbu Shartnomaning 3-bandiga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlarni mustaqil nazorat qilish va o'z vaqtida haq to'lash.

4.2.3. Tariflarda ko'zda tutilgan Xizmatlar narxining o'zgarishini kuzatib borish. Xizmatlar narxidagi o'zgarishlar PROVAYDER veb-saytida e'lon qilinadi.

4.2.4. Xizmatlar narxi o'zgargan bo'lsa va OBUNACHI yangi Tariflarga rozi bo'lmasa, ular kuchga kirguniga qadar yangi Tariflarga rozi emasligi to'g'risida PROVAYDERni yozma ravishda xabardor qilish.

4.2.5. Rekvizitlar, manzil yoki aloqa telefon raqami o'zgarganligi to'g'risida 10 kun ichida PROVAYDERni yozma ravishda xabardor qilish.

4.2.6. Saytda joylashtirilgan ma'lumotlarning mazmuni uchun javobgar bo'lish va O'zR yoki boshqa davlatlarning qonun hujjatlari bilan taqiqlangan ma'lumotlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik.

4.2.7. Xizmatlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish. Quyidagilar taqiqlanadi:

4.2.7.1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga yoki xalqaro huquqqa hamda axloq me'yorlariga u yoki bu tarzda zid bo'lgan ma'lumotlarni e'lon qilish yoki uzatish;

4.2.7.2. viruslar yoki boshqa zararli komponentlarni o'z ichiga olgan dasturiy ta'minotni yoki ma'lumotni chop etish yoki uzatish;

4.2.7.3. elektron pochta orqali boshqa Internet foydalanuvchilariga reklama, axborot va boshqa materiallarni yuborish, qabul qiluvchilar ushbu materiallarni olishga rozilik bildirgan hollar bundan mustasno;

4.2.7.4. PROVAYDER resurslariga haqoratomuz, odobsiz, erotik va pornografik tusdagi, zo'ravonlik sahnalarini o'z ichiga olgan, hokimiyatni ag'darishga chaqiruvchi, boshqa odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kansituvchi ma'lumotlarni joylashtirish;

4.2.7.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tarqatilishi cheklangan yoki taqiqlangan xizmatlar, tovarlar va boshqa materiallarni reklama qilish va sotish;

4.2.7.6. dasturiy ta'minotni yoki mualliflik huquqi yoki boshqa huquqlar bilan to'liq yoki qisman himoyalangan boshqa materiallarni, ular egasining ruxsatisiz biron-bir tarzda uzatish, ko'paytirish yoki tarqatish;

4.2.7.7. to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aldov, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan foyda olishga yoki boshqacha naf ko'rishga qaratilgan qimor o'yinlari saytlari va boshqa tizimlarni joylashtirish;

4.2.7.8. uchinchi shaxslar to'g'risida ularning sha'ni va qadr-qimmati yoki xizmat obro'siga bevosita yoki bilvosita daxl qiladigan ma'lumotlarni nashr qilish yoki boshqacha tarzda joylashtirish, shuningdek uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini ularning roziligidan joylashtirish;

4.2.7.9. PROVAYDER va/yoki uchinchi shaxslarning resurslariga ushbu resurslar uchun ortiqcha (keraksiz) yuklama tug'diradigan ma'nosiz yoki foydasiz ma'lumotlarni o'tkazish, shuningdek, ushbu resurslarga xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minot va/yoki uskunani buzilishiga yoki noto'g'ri ishlashiga olib keladigan harakatlarni amalga oshirish.

4.2.7.10. tarmoqlarni skanerlashga, dasturiy ta'minot xavfsizligidagi zaifliklarni aniqlashga, parol va boshqa identifikasiya ma'lumotlarini tanlab olishga, ochiq portlar ro'yxatini, resurslarning himoyalangan bo'limlarini aniqlashga qaratilgan va boshqa shu kabi harakatlarni egasining aniq ifodalangan roziligidan amalga oshirish, shuningdek Xizmatdan foydalanishda anonim proksi-serverlardan foydalanish;

- 4.2.7.11. PROVAYDER tomonidan taqdim etilgan resurslardan dasturiy ta'minotni ishga tushirish maqsadida, agar bu PROVAYDERning dasturiy-apparat majmuasining, shuningdek, uchinchi shaxslarning tarmoqlari, dasturiy, apparat va/yoki axborot resurslarining noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin bo'lsa, yoki to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita uchinchi shaxslarning ma'lumotlariga noqonuniy kirish maqsadida foydalanish, bunda ushbu dasturiy ta'minot OBUNACHI tomonidan atayin yoki beg'araz foydalanilganligi hisobga olinmaydi;
- 4.2.7.12. PROVAYDER resurslariga veb-proksi yoki proksi-serverni o'rnatish;
- 4.2.7.13. PROVAYDERning bo'sh resurslarini monopollashtirish: PROVAYDERning server yoki tarmoq uskunasidan barcha OBUNACHIlarga ajratilgan barcha resurslarning 10% dan ortiq miqdorda foydalanish. OBUNACHI tomonidan resurslarni monopollashtirish holati aniqlangan taqdirda, PROVAYDER darhol Xizmat ko'rsatishni to'xtatishga haqli. Xizmat ko'rsatish OBUNACHIning dasturiy ta'minotidagi (skriptlar, dastur modullari va boshqalardagi) muammolar bartaraf etilgandan so'ng tiklanishi mumkin. Qoidabuzarlik bir necha marta takrorlanganda, OBUNACHI Xizmati bloklanadi va xizmat ko'rsatish tiklanmaydi;
- 4.2.7.14. PROVAYDERning server resurslariga va boshqa texnik vositalariga, boshqa OBUNACHIlarning shaxsiy hisob va boshqa ma'lumotlariga, shuningdek, Internet orqali kirish mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishga qaratilgan har qanday harakatlar, xususan, OBUNACHIga tegishli bo'lmagan dasturiy ta'minotni va/yoki ma'lumotlarni ushbu dasturiy ta'minot va/yoki ma'lumotlar egasining roziligidiz yo'q qilish yoki o'zgartirish. Ruxsatsiz kirish deganda resurslarga resursning egasi tomonidan ruxsat berilgan usullardan farq qiluvchi yo'llar bilan kirishga qaratilgan harakatlar tushuniladi;
- 4.2.8. Xizmatlardan foydalanishda Xizmatlarning xususiyatlaridan kelib chiquvchi texnik cheklovlar mavjud, xususan:
- 4.2.8.1. Tanlangan virtual xosting tarif rejasiga muvofiq o'rnatilgan cheklovlar. Ushbu cheklovlar PROVAYDER saytidagi tarif rejasini tavsifi sahifasida ko'rsatilgan. Shuningdek, "virtual xosting" xizmatidan foydalanganda Apache veb-serveri va/yoki MySQL ma'lumotlar bazasi uchun barcha OBUNACHILAR umumiyligi yuklamasining 10% dan ko'p yuklama hosil qilish mumkin emas.
- 4.2.8.2. "Spam"ga qarshi kurashish uchun elektron pochta bilan ishlashda quyidagi cheklovlar mavjud:
- 4.2.8.2.1. OBUNACHIning bitta pochta domenidan bir soat ichida yuboriladigan xatlar soni: 50 tadan ko'p emas;
- 4.2.8.2.2. OBUNACHINING bitta pochta qutisi uchun SMTPga bir vaqtida ulanishlarning maksimal soni: 5 ta;
- 4.2.8.2.3. xabarlar navbatidagi maksimal kutish vaqt: 24 soat;
- 4.2.8.2.4. yuborilayotgan elektron xatning hajmi 20 MB dan ortiq emas.
- 4.2.8.3. Ushbu Shartlarning 4.2.8-bandida belgilangan texnik cheklovlardan tashqari PROVAYDER tomonidan ushbu Shartlarga muvofiq Xizmatlarni to'g'ri ko'rsatish maqsadida shunga o'xshash Xizmatlarni ko'rsatishda standart va odatiy bo'lgan va PROVAYDERning dasturiy-apparat majmuasining normal ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa cheklovlar ham o'rnatilishi mumkin.
- 4.2.9. Avariya va PROVAYDERga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra Xizmatlarni ko'rsatishda uzilishlar yuzaga kelganda iloji boricha ma'lumot yo'qotilmasligiga imkon beradigan vaqt oralig'ida o'z ma'lumotlaridan mustaqil ravishda zaxirali nusxa ko'chirish.
- 4.2.10. Ushbu Shartlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar, talablar va cheklovlariga to'liq rioya qilish.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. PROVAYDER OBUNACHI tomonidan joylashtirilgan, shuningdek, OBUNACHI tomonidan Internet tarmog'i va PROVAYDERning o'z resurslari orqali uzatiladigan ma'lumotlarning mazmuni uchun javob bermaydi.
- 5.2. PROVAYDER ushbu Shartnomaning 3.9 va 4.2-bandlari buzilganda OBUNACHIga xizmat ko'rsatishni darhol to'xtatib turish va butkul to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.3. Xizmat ko'rsatish ushbu Shartnomaning 5.2-bandiga kuchga kirishi sababli yoki OBUNACHIning tashabbusiga ko'ra to'xtatilganda, ko'rsatilgan Xizmat bo'yicha foydalanilmagan kunlar uchun tovon to'lanmaydi.

5.4. PROVAYDER o'z texnik resurslarida zarur rejali profilaktika va ta'mirlash ishlarni, shuningdek avariya vaziyatlarida rejadan tashqari ishlarni bajarish uchun Xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish huquqini o'zida saqlab qoladi. Xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turishga olib keladigan yuqoridagi ishlarning bajarilishi to'g'risidagi xabar PROVAYDER tomonidan o'z veb-saytida bunday ishlarning taxminiy davomiyligini ko'rsatgan holda e'lon qilinadi (Xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish to'g'risidagi ma'lumotlar PROVAYDER tomonidan imkoniyatga qarab e'lon qilinadigan avariya vaziyatlari bundan mustasno).

5.5. PROVAYDER uchun unga tegishli bo'lмаган axborot-transport kanallaridan foydalanishning imkonsizligi, yoki uchinchi shaxslarning ushbu Shartlar doirasida Xizmatlar ko'rsatishga bevosita, shu jumladan avariya vaziyatlarida ta'sir qiladigan harakati va/yoki harakatsizligi bilan bog'liq, ammo bu bilan cheklanmaydigan holatlarda PROVAYDER Xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda, PROVAYDER, muqarrar ravishda PROVAYDER resurslariga juda katta yuklamani keltirib chiqaradigan va natijada boshqa OBUNACHIning PROVAYDER xizmatlaridan foydalana olmasligiga olib keladigan, OBUNACHIning saytiga DDoS hujumi sodir bo'lganda, OBUNACHI saytini o'z resurslaridan vaqtincha chiqarish huquqiga ega.

5.6. PROVAYDER, ushbu Shartnomaning 5.5 va 5.6-bandlarida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra ro'y bergan ishdagi kechikishlar, uzilishlar va PROVAYDER resurslari va Xizmatlaridan to'laqonli foydalana olmaslik bilan bog'liq ravishda OBUNACHIga yetkazilgan yoki yetkazilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun OBUNACHI oldida javobgar bo'lmaydi va qoplamaydi.

5.7. PROVAYDER PROVAYDERGA bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra Xizmatlar ko'rsatishdagi uzilishlar, shuningdek, olinmagan foya, yo'qotilgan naf va xosting xizmatlaridan foydalanish natijasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita kelib chiqqan har qanday xarajatlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.8. TOMONLAR maxfiy ma'lumotlarni boshqa shaxslarga oshkor qilmaslik va ulardan ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq bo'lмаган maqsadlarda foydalanmaslik majburiyatini oladi, O'zR qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. OBUNACHI o'z hisob ma'lumotlarini oshkor qilganligi yoki yo'qotganligi sababli OBUNACHIga yetkazilgan har qanday zarar uchun PROVAYDER javobgar bo'lmaydi. Mablag'larni qaytarish uchun OBUNACHI tegishli tergov va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishi kerak. OBUNACHI shaxsiy kabinet parolini yo'qotib qo'yganda PROVAYDER saytidagi maxsus shakl yordamida parolni tiklashni so'rashi mumkin. Parol o'g'irlanishi natijasida OBUNACHINING aloqa elektron pochtasi o'zgarganda, OBUNACHI aloqa elektron pochtasi o'zgarganligi to'g'risida rasmiy ariza yozishi lozim.

5.9. Ushbu Shartnomaning 2.2-bandiga rioya qilinmaganda yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi tashkilotning texnologik xususiyatlari sababli ro'yxatdan o'tkazish kechikishi mumkin bo'lgan hollarda PROVAYDER OBUNACHI oldida domen nomini ro'yxatdan o'tkazish kechikishi uchun javobgar bo'lmaydi. PROVAYDER ro'yxatdan o'tkazuvchi tashkilot tomonidan ularning ichki qoidalariiga zid bo'lмаган sabablarga ko'ra domenni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishi uchun javobgar emas. Agar ro'yxatdan o'tkazish to'lovi olingan vaqtida domen nomi bandligi aniqlangan bo'lsa, PROVAYDER domen nomini ro'yxatdan o'tkazishni rad etadi va pul mablag'larini OBUNACHIga qaytaradi.

5.10. PROVAYDER faqat xizmatlarni texnik ta'mirlash maqsadida yoki uchinchi shaxslardan OBUNACHINING g'arazli va/yoki noqonuniy xatti-harakatlariga tegishli da'volar olingan taqdirda OBUNACHI ma'lumotlariga kirishi mumkin.

5.11. Uzoqdagi tarmoqlarning ishlashi ushbu tarmoq manzilining PROVAYDERning pochta yetkazib berish dasturi tomonidan pochta qabul qilinmaydigan ro'yxatlarga kiritilishiga olib keladigan hollarda PROVAYDER OBUNACHINING pochtasini uzoqdagi tarmoqlardan qabul qilishga kafolat bermaydi. PROVAYDER serverlarida va boshqa serverlarida foydalaniladigan Internetda yoki OBUNACHIga taklif qilinayotgan dasturiy ta'minotda zararli komponentlarning yo'qligi, sifati va xatosizligi uchun, agar ular PROVAYDERning o'zi tomonidan ishlab chiqilmagan bo'lsa, javobgar emas. PROVAYDER resurslari va/yoki xizmatlari orqali Internetdan foydalanish bilan bog'liq to'liq javobgarlikni va barcha xavflarni OBUNACHI o'z zimmasiga oladi.

5.12. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va PROVAYDERga tegishli vakolatli tashkilotlar va shaxslar rasmiy so'rov bilan murojaat qilganda

PROVAYDER ushbu vakolatli tashkilotlar va shaxslarga OBUNACHIning hisob ma'lumotlarini taqdim etishga haqli.

5.13. PROVAYDER OBUNACHIga xizmat ko'rsatishga tegishli rasmiy xabarlarni, shuningdek, yangi tariflarning joriy etilishi va amaldagilarini o'zgartirish to'g'risidagi ma'lumotlarni PROVAYDERning rasmiy saytida e'lon qiladi. OBUNACHI ko'rsatilgan aloqa elektron pochta manzilining to'g'riliqi, bunday ma'lumotlar bilan o'z vaqtida tanishish va sozlamalarga tegishli o'zgartirishlar kiritish uchun mustaqil javobgarlikka ega. O'zgarishlardan norozi bo'lgan taqdirda, OBUNACHI bu haqda PROVAYDERni darhol xabardor qilib, ko'rsatiladigan xizmatlardan voz kechishga haqli. OBUNACHI xizmatlardan foydalanishni davom ettirganda, Shartnomaga yangi shartlarda qabul qilingan deb hisoblanadi.

5.14. Yangi tarif rejali kiritilgan, xizmat ko'rsatish rejali o'zgargan hollarda, ular xizmatlarni uzaytirishda qo'llaniladi.

5.15. PROVAYDER, zarur bo'lganda, Xizmatlarni taqdim etish uchun tegishli litsenziyalar va/yoki ruxsatnomalarga ega uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

5.16. OBUNACHI ushbu Shartlarni, shuningdek, O'zRning amaldagi qonunchiligini buzgan taqdirda, PROVAYDER Xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib qo'yish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.17. Xizmatni to'xtatib turish OBUNACHIning vaqtincha Xizmatlardan foydalana olmasligini anglatadi. Xizmatni to'xtatib turish, agar ushbu Shartlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, OBUNACHI Xizmatni to'xtatib turishga olib kelgan qoidabuzarliklarni bartaraf etguniga qadar PROVAYDER tomonidan amalga oshiriladi. Xizmatni to'xtatib turish bilan bir vaqtda OBUNACHIning aloqa elektron pochta qutisiga va Shaxsiy kabinetiga Shartlarning buzilganligi va OBUNACHI tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risida xabarnoma yuborilishi mumkin.

5.18. OBUNACHI tomonidan O'zR qonun hujjatlari PROVAYDERning nuqtai nazariga ko'ra aniq buzilgan taqdirda, unga Xizmatlar ko'rsatish PROVAYDER tomonidan oldindan ogohlantirishsiz to'xtatilishi mumkin, bunda pul mablag'lari qoldig'i OBUNACHIGA qaytarilmaydi va PROVAYDER xarajatlarining qoplanishi deb hisoblanadi.

5.19. OBUNACHI himoyalananmagan ularishlar qo'llanayotgan, yoki zararli dasturlar va ilovalar tahdid qilayotgan qurilmalarga o'z shaxsiy ma'lumotlarini kiritishda ularning but saqlanishi uchun to'liq javobgarlikka ega.

6. TEXNIK QO'LLAB-QUVVATLASH

6.1. Xizmatlarni ko'rsatish va ulardan foydalanish uchun PROVAYDER ushbu Shartlarda belgilangan tartibda Texnik qo'llab-quvvatlash xizmatining (keyingi o'rnlarda - TQX deb yuritiladi) faoliyatini ta'minlaydi.

6.2. TQX texnik jihozlar va tizim dasturiy vositalarning ishlashini boshqaradi va nazorat qiladi, shuningdek, agar bunday o'zgarishlarga ruxsat berilgan bo'lsa va OBUNACHIDA mustaqil amalga oshirish imkon bo'lmasa, konfiguratsiya fayllariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi OBUNACHI so'rovlarni, shuningdek taqdim etilayotgan Xizmatlarning ishlashi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish haqidagi so'rovlarni qayta ishlaydi.

6.3. TQXga murojaat qilganda, OBUNACHI texnik mutaxassislar bilan muloqot qilish uchun zarur bo'lgan minimal bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligini tushunadi. TQXga murojaat qilganda, OBUNACHI xatoning sabablari haqida oldindan ma'lumot to'plashi, muammoning mohiyatini va uning yuzaga kelish holatlarini aniq va lo'nda tushuntirishi kerak.

6.4. TQX OBUNACHILARga dasturlash, veb-dizayn, o'rnatish, OBUNACHIning skriptlari va dasturlarini sozlash yoki ularni optimallashtirish bo'yicha maslahat bermaydi, shuningdek boshlang'ich kompyuter savodxonligi, saytlarni yaratish va/yoki siljитish, uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning ishlashi, qidiruv, va boshqa shu kabi masalalarni o'rgatmaydi. Bunday maslahatlar OBUNACHIga qo'shimcha kelishuv asosida qo'shimcha haq evaziga taqdim etilishi mumkin.

6.5. TQXga murojaat qilish OBUNACHI tomonidan, Shaxsiy kabinetga kirayotganda OBUNACHIning avtorizatsiyalash orqali Xizmat egasi sifatida identifikasiya qilish maqsadida Shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi.

6.6. Shaxsiy kabinetga kirish imkonsiz bo'lganda OBUNACHI PROVAYDER saytida joylashgan maxsus shaklni to'ldirish orqali TQXga murojaat qilishi mumkin.

6.7. Boshqa yo'llar bilan (xususan, telefon aloqasi va/yoki elektron pochta orqali va/yoki Shaxsiy kabinet orqali murojaatdan farqli usulda) yuborilgan so'rovlar rasmiy hisoblanmaydi va PROVAYDER uchun ularga javob berish va/yoki birorta harakatni bajarish majburiyatiga sabab bo'lmaydi. PROVAYDER telefon aloqasi va/yoki elektron pochta orqali va/yoki Shaxsiy kabinet orqali murojaatdan farqli usulda berilgan savollarga javob berish imkoniyati yoki imkonsizligi to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.8. TQXga telefon orqali murojaat qilingan taqdirda, TQX xodimi OBUNACHI dan avtorizatsiya qilish uchun Shaxsiy kabinet orqali so'rov yuborishni talab qilishi mumkin. TQX xodimi, shuningdek, OBUNACHIning telefon yoki boshqa murojaatini OBUNACHI uning mazmunini ko'ra oladigan tarzda ma'lumotlar bazasida qayd etish huquqiga ega. Bunda telefon orqali olingan OBUNACHI so'rovlariiga TQXning javob berishi PROVAYDER tomonidan faqat ish vaqtida amalga oshiriladi.

6.9. So'rovlar PROVAYDER tomonidan ularning kelib tushishishga qarab ko'rib chiqiladi. OBUNACHI so'roviga TQXning javob berish muddati TQX tomonidan qabul qilingan so'rovlar soniga bog'liq bo'lib, PROVAYDER imkon qadar so'rovlarga 48 soatdan ortiq bo'limgan vaqt ichida javob beradi, biroq kerak bo'lganda, PROVAYDER javob berish vaqtini uzaytirishi mumkin.

6.10. Quyidagilarni o'z ichiga olgan so'rovlar TQXda ko'rib chiqish va qayta ishlash uchun qabul qilinmaydi:

6.10.1. o'zbek, rus va ingliz tillaridan boshqa tillarda tuzilgan ma'lumotlar;

6.10.2. odobsiz iboralar, qo'pollik, haqorat, surbetlik va umumqabul qilingan ishbilarmonlik muloqoti qoidalari va odatlariiga zid bo'lgan boshqa iboralar;

6.10.3. Xizmatlarga (xostingning ishlashi va domenni ro'yxatdan o'tkazish) aloqasi bo'limgan va/yoki Xizmatlarning texnik xususiyatlariga aloqasi bo'limgan savollar;

6.10.4. tushunarsiz, noaniq yoki shunga o'xshash tarzda tuzilgan savollar, shu sababli savolning ma'nosini tushunib bo'lmaydi;

6.10.5. OBUNACHI skriptlarini takomillashtirish, sozlash yoki o'rnatish bo'yicha talablar va h.k.

6.11. Xizmatlarni ko'rsatish ushbu Shartlarda nazarda utilgan asoslarga ko'ra to'xtatilanligi sababli so'rovlar ko'rib chiqish va bajarish uchun qabul qilinmaydi, hamda ko'rib chiqish uchun qabul qilingan arizani bajarish rad etilishi mumkin.

6.12. Agar TQXga standart so'rov yoki PROVAYDER saytidagi "Bilimlar bazasi" bo'limida javobi mavjud bo'lgan so'rov kelib tushsa, so'rovning javobi PROVAYDER saytidagi tegishli sahifaga havola ko'rinishida berilishi mumkin.

6.13. Agar TQXga uning javobini boshqa Internet saytlarida topish mumkin bo'lgan so'rov kelib tushsa, so'rovning javobi tegishli saytga havola ko'rinishida berilishi mumkin.

7. DA'VO VA BAHSLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

7.1. TOMONLAR Shartnomaga nisbatan yoki u bilan bog'liq ravishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday bahsli masalalar, kelishmovchiliklar yoki da'volarni muzokaralar yo'li bilan tartibga soladi.

7.2. TOMONLAR muzokaralar yo'li bilan bahsli masalalar bo'yicha kelishuvga erisha olmasalar, ushbu masalalar O'zbekiston Respublikasi sudlarida amaldagi qonun hujjalariiga muvofiq ko'rib chiqilishi kerak.

8. FORS-MAJOR

8.1. O'zR qonunchiligidagi qabul qilingan tarzda talqin qilinuvchi, Shartnoma shartlarini bajarishni istisno etuvchi yoki xolisona to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, TOMONLAR o'zaro da'volarga ega emas va tomonlarning har biri o'zining ushbu holatlarning oqibatlari tavakkalchilagini o'z zimmasiga oladi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. TOMONLAR ushbu Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'zları ham, ularning vakillari, xodimlari ham biron bir pul yoki boshqa shakldagi noqonuniy naflarni taklif qilmaganligi, talab qilmaganligi yoki qabul qilmaganligini va kelgusida ushbu Shartnomani tuzish va bajarishga aloqador bunday harakatlarni amalga oshirish niyatida bo'limganligini kafolatlaydi.

9.2. Ushbu Shartnomaning 9-bandida ko'rsatilgan holatlarga rioya qilish, ushbu Shartnomaning to'liq amal qilish muddati davomida o'z vakillari, xodimlari tomonidan ularga rioya etilishini ta'minlash uchun oqilonqa choralar ko'rish majburiyatini oladi.

9.3. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida hech qanday shaklda, shu jumladan uchinchi shaxslar orqali quyidagi harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladi:

9.3.1. Poroxo'rlik – noqonuniy tijorat yoki boshqa afzalliklarni qo'lga kiritish yoki saqlab qolish uchun yuqorida ko'rsatilgan yoki boshqa biron-bir shaxslar foydasiga yoki ularidan har qanday noqonuniy mulk yoki boshqa shakldagi nafni taklif qilish, berish, ruxsat berish yoki olish.

9.3.2. Pora so'rash yoki pora berishga undash – rad etilgan holatda tahdid qilib yoki tahdid qilmasdan pora talab qilish.

9.3.3. Vakolatlarni suiiste'mol qilish – tijorat yoki o'zga tashkilotda boshqaruv yoki o'zgacha funksiyalarni bajaruvchi shaxsning o'z vakolatlaridan o'zi yoki boshqalar uchun foydalanishi yoki boshqa shaxslarga zarar yetkazishi.

9.3.4. Yuqorida qayd etilgan korruption amaliyotdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, agar mulkning jinoyatdan olingan daromad ekanligi ma'lum bo'lsa, uning jinoiy kelib chiqishini, manbasini, joylashgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish yoki unga egalik qilish usulini yashirish yoki sir tutish.

9.3.5. Shartnoma TOMONlarining korrupsiya qarshi amaldagi qonunchiligini buzuvchi boshqa harakatlarni sodir etish. Tegishli TOMON O'zbekiston Respublikasining korrupsiya qarshi qonunchiligidagi belgilangan qo'shimcha taqiqlar to'g'risida boshqa TOMONni darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart.

9.4. TOMON ushbu Shartnomaning 9.3-bandida ko'rsatilgan har bir holat yoki holat ro'y berganidan asosli shubhalanish to'g'risida boshqa TOMONni darhol yozma ravishda xabardor qilishi, tashkilotda ishbilarmonlik odob-axloq qoidalariga rioya qilish, qandaydir korruption harakatda ishtirot etishga murosasizlik madaniyatini keng yoyishi shart.

9.5. TOMONLAR ushbu Shartnomani to'xtatib turish yoki bekor qilish uchun Korrupsiya qarshi kurashish shartlarining 9.3-bandida ko'rsatilgan faktni qonuniy kuchga kirgan tegishli sud qarori bilan aniqlash zarurligiga kelishib oldilar.

10. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

10.1. Ushbu Shartnoma TOMONLAR tarafidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 1 (bir) yil davomida amal qiladi. Kelajakda, agar TOMONlardan biri Shartnomaning joriy amal qilish muddati tugashidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin ushbu Shartnomani bekor qilish to'g'risida e'lon qilmasa, Shartnomaning amal qilish muddati avtomatik ravishda keyingi kalendar yili uchun uzaytirilgan deb hisoblanadi.

10.2. Ushbu Shartnoma har ikki TOMONning kelishivi yoki OBUNACHIning tashabbusi bilan, ushbu Shartnomani bekor qilish va qarzni to'lash sanasidan 15 kun oldin PROVAYDERga yozma ariza berish orqali muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Ushbu Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar, agar ular TOMONLARning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

11.2. Ushbu Shartnoma O'zRning Fuqarolik kodeksi va Xizmatlar ko'rsatish sohasida amaldagi boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq tuzilgan va imzolangan.

11.3. OBUNACHI ushbu Shartnomani quyidagicha imzolashi mumkin:

11.3.1. 3.10-bandga muvofiq elektron raqamli imzodan foydalangan holda masofadan turib.

11.3.2. Elektron grafik imzo yordamida masofadan turib. Bu holda o'z imzosini tasdiqlash uchun OBUNACHI "WORD" so'zi yozilgan qog'oz varag'i bilan birga fotosuratga tushishi kerak. OBUNACHINING shaxsini identifikatsiya qilish uchun olingan fotosuratda OBUNACHINING yuzi, shuningdek, uning qog'ozga yozgan "WORD" so'zi aniq ko'rinishi kerak. TOMONLAR ushbu Shartnomani imzolashning mazkur usulidan foydalanish mumkin deb hisoblaydilar va uni haqiqiy deb tan oladilar.

11.3.3. PROVAYDER ofisida qog‘oz shaklida. Bu holda, ushbu Shartnoma ikki nusxada tuziladi, ikkala nusxasi ham aynan bir xil bo‘lib, bir xil yuridik kuchga ega. TOMONLARNING har biri ushbu Shartnomaning bitta nusxasiga ega.

12. MANZIL VA BANK REKVIZITLARI